

*Nodirova Farangiz Yaxshiboy qizi,*

*Utabayeva Sevinch Sobir qizi,*

*Abdullayeva Durdona Kamoliddin qizi.*

*Shahrisabz davlat pedagogika insituti*

*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabalari*

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

**Annotasiya.** Ushbu maqola boshlang'ich sinf bosqichida bo'lgan bolalarga matematika o'qitish metodikasini keng usulda tushuntirish, ularda matematikaga oid bo'lgan bilimlarni shakllantirish, matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarni mehnatni sevishtga va dunyoqarashni shakllantirish to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Boshlang'ich, metodika, matematika, ta'lim, tarbiya, o'quvchi, pedagog.

**Kirish.** Bilishimiz mumkinki so'nggi yillarda mamlakatimizda boshlang'ich sinflarga ta'lim va tarbiya berishga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan bir qatorda boshlang'ich ta'lim tizimida matematika o'qitish o'z ko'lami va ahamiyati jihatdan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirdi.

Buni asoslashi uchun, 1997 -yil 27- avgustdagi " Ta'lim to'g'risidagi qonunning 12- moddasi 1-4- sinflarni o'qitishga bag'ishlanganini keltirib o'tishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasida " Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning 3.31 -bandi uzluksiz ta'limni rivojlantirishda 1-4 sinflarda o'qitishni tashkil qilishning rejalari ko'rsatib o'tilgan.

Matematika "yunoncha " "mathematike ,(mathema- bilim, fan)-aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan. Dastlabki ob'yekti sanoq bo'lganligi uchun ko'pincha unga ( hisob kitob haqidagi fan) deb qaralgan(bugungi matematikada hisoblashlar, hatto formulalar ustidagi amallar juda kichik o'rin egallaydi). Matematika eng qadimiy fanlardan biri bo'lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o'tgan va buning barobarida „matematika nima?“ degan savolga javob ham o'zgarib, chuqurlashib borgan.

Metodika - yunoncha "metodos" degan so'zdan paydo bo'lib, U tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodikasi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlar yig'indisi. Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qo'llanib kelinadi. Bundan tashqari u bilan yonma-yon usul, uslub kabi o'zbekcha muqobillari ham ishlatiladi. Bizning nazarimizda ilmiy doirada xalqaro so'z bo'lgan METODIKA atamasi qo'llangani maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan qarashlarimizda metodika so'zidan foydalanamiz. Metod bu biror maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladigan yo'l, usuldir. Aslida, kundalik hayotimizda har sohada, har soniyada undan foydalanamiz. Shub bilan birgalikda matematikani o'qitishda ham keng foydalanamiz.

Ta'lim metodlari biz bilishimiz mumkinki o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini amaliy o'rgatish bilan bir qatorda nazariy bilimlarni berib borish ham ko'zda tutiladi. Amaliy deganda faqat kitobdagi mavzuni bolalarga bayon qilib berish tushunilsa yani kitobiy tilda tushuntirilsa, nazariy bilimlarga ega bo'lish esa o'quvchilarga yana ham tushunarli, sodda tilda mavzuni yoritib berish demakdir. Shu bilan bir qatorda matematika o'qitish metodikasi o'qituvchilardan matematikani yaxshi bilishni talab qiladi. Sababi boshlang'ich sinflardagi

matematika o'qitish metodikasining har bir bo'limi mazmunli va bir biri bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan bir qatorda matematika metodikasi ta'lim olish bilan bir qatorda tarbiyani ham birgalikda olib ketishni talab qiladi .

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining predmeti quyidagilardan iborat.

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni asoslash.

2. Matematika o'qitish mazmunini ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa , fan asoslarini o'rganishda izchillik ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'limning mazmuni o'quvchilarning aniq bilim bilish imkoniyatlariga mos keladi. 3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish.

4. O'qitish vositalari - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar.

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish).

Matematika metodikasi pedagogika , psixologiya va yosh psixologiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Boshlang'ich sinf matematika metodikasi ta'limning boshqa fan metodikalari ( ona tili, tarbiya, rasm, mehnat va boshqa fanlar o'qitish metodikasi ) bilan uzviy bog'liq. Demak matematika o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan uzviy holda o'qitish, urgatish, to'g'ri yo'naltirish, o'qituvchidan talab qilinadi.

Shunday qilib , boshqa har qanday o'quv fani kabi matematika boshlang'ich sinf o'qituvchisining maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi.

1. Matematika o'qitishning mumta'limiy maqsadi

2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.

3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Boshlang'ich maktabda matematika o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari , o'quvchilardan yakka (individual) yozma so'rov o'tkazishning vositalari yaratilgan. Ba'zi didaktik materiallar dasturining chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun mo'ljallangan.

V-XI sinflarda o'qitiladigan matematikaning eng asosiy va o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan elementlar, tushunchalar berilgan. Yuqori sinflarda shu tushunchalar kengaytirilgan , chuqurlashtirilgan va eng asosiy murakkablik darajasiga o'tgan holda o'qitiladi . Boshlang'ich sinf materiali konsentrik tuzilgan . Masalan, ilgari 1-o'nlik raqamlash o'qitilgan bo'lsa, keyin 100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o'qitiladi. Keyingi bosqich esa 1000 xonali sonlar ichida arifmetik amallar bajariladi va h.k

Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodikasida tengliklar va tengsizliklar

$(4=4, 6=1+5, 3>2, 6+1>5, 8-3>8-4\dots)$  qaraladi .

2-sinfdan boshlab  $(X+6)-5=2$

$X+6=5+2$

$X+6=7$

$X=7-6$



X=1

ko‘rinishidagi tenglamalar yoritiladi va tushunchalar paydo qilinib boriladi.

Xulosa.Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunga kelib zamon shiddat bilan o‘shib bormoqda. Zamonamizning o‘shida yoshlarning roli va o‘rni beqiyos. Shu sababli ham yoshlarimizga katta imkoniyatlar berilmoqda , yaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim va tarbiya berishda katta e‘tibor berilmoqda. Boshlang‘ich sinflarga matematika o‘qitish metodikasi kelajakda biron kasbning kuchli mutaxassisi bo‘lish bilan bir qatorda , ularning fikr doiralari keng, aqlan yetuk, biron masala ustida mushohada yurita olish qobiliyatlarini shakllantirishga katta yordam beradi . Men o‘ylaymanki boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nafaqat matematika o‘qitish metodikasi balki boshqa fanlarni ham mukammal darajada bilishlari kerak . Sababi ular kelajak avlodning shakllanishida bosh fundamentni shakllantirib beradilar